

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN BALIQLAR BIOLOGIYASI, ZOOGEOGRAFIYASI VA BALIQ OVLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Baliqlar biologiyasi, zoogeografiyasi va baliq ovlash fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Baliqlar biologiyasi, zoogeografiyasi va baliq ovlash

1. Baliqlar biologiyasi, zoogeografiyasi va baliq ovlash haqida umumiy ma’lumotlar;
2. Baliq boyliklarni saqlash choralari haqida;
3. O‘zbekistonda uchraydigan baliq turlari;
4. Baliqlarning ko‘payishi haqida;
5. Baliqlar biologiyasi va tuzilishi;
6. Respublikamizning hududlarida baliq yetishtirish;
7. Suv haroratiga bo‘lgan talabiga ko‘ra baliqlarning guruhlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Baliqlar biologiyasi, zoogeografiyasi va baliq ovlash haqida umumiy ma'lumotlar	Baliqlar biologiyasini bilishi, baliqlarning zoogeografiyasi va baliq ovlash haqida umumiy ma'lumotlarni bilishi, amaliyotda baliqlarning turlarini, ularning tarqalishini, kelib chiqishi haqida haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	17,5 %	7 ta
2	Baliq boyliklarni saqlash choralari	Baliq boyliklarni saqlash choralari, usullari, shart sharoitlari haqida mukammal bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	10 %	4 ta
3	O'zbekistonda uchraydigan baliq turlari	O'zbekistonda uchraydigan baliq turlarini bilishi, farqlashi, turlarni bir biridan ajrata olishi va ishlab chiqarishda foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta
4	Baliqlarning ko'payishi	Baliqlarning ko'payishi, rivojlanishi, lichinkalarning ochib chiqishi, chavoq va voyaga yetgan baliqlarni ikralari va urug'larini ajrata olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	17,5 %	7 ta
5	Baliqlar biologiyasi va tuzilishi	Baliqlar biologiyasi va tuzilishi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak, ularning biologik rivojlanishi, tashqi va ichki tuzilishi, suzgichlarining tuzilishi, tangachalarining tuzilishi haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladi.	17,5 %	7 ta
6	Respublikamizning hududlarida baliq yetishtirish	Respublikamizning hududlarida baliq yetishtirish haqida umumiy ma'lumotlarni bilish, ularni yetishtirish usullari va guruhlari bo'yicha keng qamrovli tushunchalarga ega bo'ladi.	12,5 %	5 ta
7	Suv haroratiga bo'lgan talabiga ko'ra baliqlarning guruhlari	Suv haroratiga bo'lgan talabiga ko'ra baliqlarning guruhlari haqida tushunchaga ega bo'lish, baliqlarga abiotik va biotik omillarning ta'siri haqida umumiy ma'lumot bera oladi.	12,5 %	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	22,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	65 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	12,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Аманов А.А. Экология рыб водоемов юга Узбекистана и сопредельных республик. – Ташкент: Фан, 1985
2. Дарлингтон Ф. Зоогеография. – М.: Прогресс, 1966.
3. Суворов Е.К. Основы ихтиологии. – М.: Советская наука. 1948.
4. Yuldashov M.A., Kamilov B.G., Qaxramonov B.A., Tojibayev M.S. Ixtiologiya. Darslik. - Toshkent, 2022.
5. Yuldashov M.A., Kamilov B.G., Baliqlar ekologiyasi va atrof muhit muhofazasi. Darslik. - Toshkent, 2023.